

SANOAT KORHONALARDA MAHSULOT SIFATI, UNI BOSHQARISH TIZIMI VA SIFATNI BOSHQARISHNING ASOSIY TAMOYILLARI TAHЛИLI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10990092>

Orifjonov Nodir G'oyibjon o'g'li.


Namangan Muhandislik Texnologiya instituti doktoranti.

+998973700005. n.orifjonov@gmail.com

Jahon global iqtisodiyotini zamonaviy sharoitlarida, bozorda faqat bozor talab qilgan, bozorda qiymatga ega mahsulotni yetkazib beruvchi korxonalargina muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Zamonaviy iqtisodiy holat korxonalar rahbari e'tiborni alohida ishchilar samaradorligiga emas, balki korxonada sifatni boshqarishga tizimli yondoshishga qaratishga undamoqda, bunda korxonaga, iste'molchilar talablariga, shuningdek atrof-muhitni muxofazasi talablariga muvofiq bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatishga olib keladigan ko'p jarayonlarni uyg'unlashgan o'zaro aloqa sifatida qaramoqdalar. Boshqarishga bunday yondoshishni, jahon iqtisodiyoti rivojlanishini zamonaviy bosqichda korxonalarini oldida turgan maqsadlar va vazifalarni qayta ko'rib chiqish va mukammallashtirishni davomiy jarayonini oqibati bo'lgan prioritetlar (ustivor yo'nalishlarni) qayta baholanishi bilan tushuntirish mumkin. Sifatni boshqarishni doimiy mukammallashtirish tamoyili korxonalarini kuchayayotgan raqobat sharoitidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar rakobatbardoshligini oshirishga va iste'molchilarda ularning sifati va ekologiya xavfsizligiga ishonchni ta'minlashga olib keladigan yo'llar va usullarni izlashga majbur qiladi. Dunyo rivojlanishining bu bosqichida faqat ishlab chikarilayotgan mahsulotlar va xizmatlarni yuqori sifati orqali dunyo bozorida yetakchi bo'lish mumkin. Dunyo bozorida bugungi kunda yetakchi hisoblanuvchi davlatlarni tarixi shuni aniq ko'rsatib turibdiki, ularning yutug'lari asosida quyidagi komponentlar yotadi: Intizom; Fidokorona mehnat; Mahsulot sifati va uni boshqarish tizimi hamda atrof-muhit sifati masalalarida qat'iylik va sobitqadamlik; Sifatni ta'minlash vazifalarini ustivorligi to'g'risidagi fikrlarni aholi ongiga sindirish va boshqalar.

Sifat - bu mahsulot yoki xizmatlarni, ularga talablarni, belgilangan yoki kutilayotgan extiyojlarni qondirish xususiyatini beradigan vamayjud tavsiflari yigindisidir. Tashkilotni rivojlanganligini rad qilib bo'lmaydigan ko'rsatgichlaridan biri sifat bo'lib, uning xududda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning asosiy xususiyati hisoblanadi. Sifat tushunchasini

bir nechta ta'rifi mavjud.



1-Rasm. Sifatning asosiy ta'riflari⁴⁰

Sifat va uni shakllanishi bilan bog'liq jarayonlar eramizdan avvalagi 2150 yildan boshlab uchraydi. Xammurapining 229 kodeksidan bizga ma'lumki, qurilgan binolar buzilsa va bunda odamlarni yarador qilsa yoki bino tomonidan biron zarar yetkazilsa quruvchi og'ir jarimalarga duchor qilinar edi, masalan, biron odam nobud bo'lsa, quruvchi xam qatl qilinar edi.

Bunga o'xshash tamoyillar Finikiyaliklarda ham uchrar edi, Finikiya auditori sifat standartida yo'l qo'ygan xatosi uchun ishlab chiqaruvchi bu xatolarni qaytarmasligi uchun uni qo'lini kesar edi. Standartlarning rivojlanish davrida qadimgi Turkiyada podshoh Boyaziddin II Ixtisabi Bursa qonunlarida bo'yoqlar rangi, joylashishi, tovarlar sifati bo'yicha farmonlar chiqardi, shuningdek, bu farmonlarda qoidalarni buzganlik uchun jazolar belgilanar edi. Xitoy imperatorlari, ishlab chiqaruvchilarlardan o'z tovarlariga muhr bosishlarini talab qilar edilar. Agar tovar qo'yilgan talablarga javob bermasa, jazo qo'llanilar edi (ko'p hollarda o'lim jazosi). Sifat masalalariga ahamiyat kuchayish davri 19 asrdan boshlanadi. Bu davrdan boshlab ishlab chiqaruvchilar o'z tovarlariga marka bosar va bundan o'ta fahrlanar edilar.

1-jadval

Sifat tushunchasini evolyutsion targ'iboti

Muallif fikri	Sifat tushunchasini turlicha shakllanishi
Aristotel (e.a. III asr)	Tovarlar o'rtasidagi farq. Belgilariga ko'ra farqlanishi "yaxshi - yomon"

⁴⁰ Rasm tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi

Gegel (XIX asr)	Sifat - bu birinchi navbatda jamiyat bilan ham-oxang ko'rinish bo'lib, sifat yo'qoladigan bo'lsa jamiyat ham o'z ko'rinishini tugatadi.
Xitoycha talqin	Sifatni ko'rsatuvchi iyeroglif ikki elementdan tashkil topgan - "muvozanat" va "pul", (sifat = muvozanat + pul), demak sifat - "oliy" hamda "qimmatli" demakdir.
Shuxart (1931 y.)	Sifat ikki ko'rinishga ega: - ob'yektiv jixatdan tavsiflanishi; - sub'yektiv jixatdan tavsiflansa mahsulot qay darajada ekanini "yaxshilagini" ko'rsatadi.
Isikava K. (1950 y.)	Sifat iste'molchilarni qoniqtiradigan reallikdir.
Dj.M.Djurjan (1974 y.)	Iste'molga yaroqliligi (tavsiyaga muvofiqligi). Sifat - bu iste'molchining qoniqish darajasidir. Ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotini sifati haqida o'ylaganda u iste'molchining talablarini qondirish yo'lini qidiradi.
A. Feygenbaum	Sifat - bu shunday xususiyatki iste'molchining extiyoji - talabidir.
E. Deming	Sifat - kam xarajat bilan ishonarli bo'lgan mahsulotning bozor talabiga javob berishidir.
F. Krosbi	Sifat - iste'molchining extiyojlarini qondira olishi bilan belgilanadi.

Manba: jadval tadqiqotchi tomonidan tayyorlangan.

Sifat to'g'risida har birimiz har xil tushunchaga egamiz va odatga ko'ra sifat to'g'risidagi tushunchalarimiz go'zallik, mukammallik, haqiqat to'g'risidagi tushunchalar bilan bog'liqdir. Buni tushuntirish murakkab, albatta, lekin biz "uni ko'rsak, u nima ekanini bilamiz" va odatda biz sifatli buyum uchun katta pul to'laymiz. Hattoki, ingliz tilini Oksford lug'ati "Sifat" so'zini bir necha tushunchasini beradi, bu esa sifat to'g'risida bir qator tushunmovchiliklarga olib keladi va uni miqdoriy aniqlash va boshqarishni o'ta qiyinlashtiradi.⁴¹

"Sifat" tushunchasini interpretasiyasini bo'yicha eng keng tarqalgan tushunmovchiliklaridan biri «Rolls - Roys» va «Mini»ni qarama-qarshi qo'yish hisoblanadi. Bu avtomobillardan qaysi birini sifati yaxshi? Ikkala mashina ham inson ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilgan, lekin Rolls - Roysning texnikaviy tavsiflari Minidan yuqori. Asosiy maqsad bir xil - odam tashish uchun mo'ljallangan, lekin turli ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun loyihalashtirilgan ikki narsani solishtirishda biz boshqacha yondashamiz. Bu yerda biz sinfdagi farqni ko'ramiz. Rolls-Roys sinfi bo'yicha Minidan yuqori, lekin sifati bo'yicha emas.

Sinf mahsulotlarni ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi, shu bilan birga sifat, mahsulot qanchalik belgilangan extiyojni qanoatlantirishiga bog'liq.

⁴¹ Issues of comprehensive product quality management mechanism. Международный современный научно-практический журнал «Научный Фокус» (20.09.2023йил 197-200 бетлар)

Sifatni aniqlash bir kator xususiyatlarga ega, masalan, maqsadga muvofiqlik, ishonchlilik, narx, talablarga muvofiqlik, iste'molchilarni qanoatlantirish. Bu konsepsiyalarni yangi deb ayta olmaymiz, ular turli vaqt va turli davlatlarda qo'llanilgan.

Birinchi tan olingan tizimlar - sifat va sifat standartlari, ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulotlarni o'zini murakkabligini sezilarli o'sishi paydo bo'lgan sanoat rivojlanishi va texnologik o'zgarishlar natijasi sifatida ikkinchi jahon urushidan so'ng joriy qilindi.

Amerika birinchi bo'lib bu o'zgarishlarni ko'ra bildi va harbiy quro'l - aslahalarni standartlashtirish maqsadida quyidagi standartlarni qo'llay boshladi:

- MEL - Q - 9858 Sifat tizimini texnikaviy shartlari
- MEL - 1 - 45208 Nazorat tizimiga qo'yilgan talablar

Bu ikkala standart hozirgi kunda ham amalda bo'lib, harbiy shartnomalar va boshqa maqsadlar uchun qo'llanilmoqda. Bu standartlar shuningdek, NATO doirasida qo'llaniladigan AQAR (Sifatni ta'minlash bo'yicha birlashgan materiallar) nomi ostida mashhur bo'lgan standartlar to'plamlari uchun asos qilib olingan.

Lekin sifat standartlariga zaruriyat harbiy sanoat doirasidan tashqarida ham paydo bo'ldi. Shuning uchun BS 4891 va BS 5179 Britaniya standartlari joriy qilindi. Lekin ular asosan amaliy boshlang'ich xujjalarga o'xshash bo'lib, shartnomalar bo'yicha talablar sifatida qo'llanilmasdi. AQAR standartlari harbiy talablar bilan bog'liq bo'lganligi sababli, ularni ham qulay deb hisoblash qiyin.

Bu muammo o'z yechimini 1979 yilda topdi, shu yili uch qismdan iborat BS 5750 standarlari nashr qilindi. Ular bir - biriga o'xshash va sub'yektiv edi, qo'shimcha tushuntirishlarni, shuningdek standartlarni qo'llash bo'yicha ma'lumot bo'lgan qo'shimcha qismlarni (405 va 6) talab qilar edi.

BS 5750 iste'molchilar va ta'minotchilar tomonidan shartnoma tuzish jarayonlarida qo'llanilar edi. Ammo, bunga qo'shimcha ravishda, BSI (Britaniya standartlar instituti) uchinchi tomondan ro'yxatga olish tizimini joriy qildi. Bu BSIga tegishli tashkilotlarni talablariga muvofiq bo'lgan kompaniyalarni ro'yxatga olishga imkon berdi. Ro'yxatga olish barcha, mavjud va kelajakdagi iste'molchilar nomidan sifat kafolati bo'lib xizmat qilishi mumkin edi.⁴²

Xalqaro amaliyotda bunday holatlar ko'p uchrab turdi va shuning uchun Xalqaro Standartlashtirish Tashkilotining (ISO) Kengashi 1987 yili BS 5750 asosidagi qator standartlarni nashr qildi, bu ISO 9000 standartlarini bazaviy

⁴² Quality Management System And Its Analysis In "Mehmash" Limited Liability Company Of Namangan Region. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 7.502 Impact factor

seriyasi edi.⁴³ 1987 yildan boshlab 9000 seriyali ISO standartlarini ishlab chiqish davom etdi. Yangi qabul kilingan asos bo'luvchi standartlarni qayta ko'rib chiqish rejalarhtirilgan edi. Qayta ko'rib chiqish ikki bosqichda amalga oshirildi, birinchisi 1994 yil va ikkinchisi 2000 yilda. 9000 seriyali ISO standartlari 1987 yilda o'zgartirildi va qabul qilingan shakl va mazmunda qayta nashr qilindi.

9000:2000 seriyali ISO standartlarini uchinchi tahriri quyidagi standartlardan iborat:

ISO 9000 – Sifat menejmenti tizimi – Asosiy qoidalar va lug'at;

ISO 9001 – Sifat menejmenti tizimi – Talablar;

ISO 9004 – Sifat menejmenti tizimi – Faoliyatni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar.

Sifat menyejmenti tizimini yaratish uchun tashkilot rahbariyatining strategik qarori zarur bo'ladi.


Sifat menejmenti tizimi – tashkilotni tegishli faoliyat doiralari va darajalarida belgilanadigan va tashkilotni boshqarish uchun qo'llaniladigan maqsadlarni ishlab chiqish va ularga erishish uchun o'zaro bog'liq va o'zaro munosabatda bo'luvchi elementlarni yig'indisi sifatida belgilanadi.

Sifat menejmenti tizimi – bu tashkilot sifat bilan bog'liq vazifalarni hal qiladigan usuldir. Keng ma'noda u mahsulot sifati sohasida belgilangan maqsadlarga erishish va iste'molchilar talablarini qanoatlantirish uchun qo'llaniladigan tashkilotni tashkiliy tuzilmasi, xujjalari, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarni qamrab oladi.⁴⁴

Sifat menejmenti tizimi – u yoki bu faoliyat qanday va nima uchun amalga oshirilishi, vazifalarni hal qilish usullari va erishilgan natijalarni qayd qilinishi bayoni masalalarini qamrab oladi. 90-yillar o'rtasiga kelib ISO tashkilotini texnikaviy qo'mitasi TK 176 sifat menejmenti asosiy tamoyillarini ishlab chiqish uchun ishchi guruhini tashkil qildi. Olib borilgan ish natijasiga ko'ra, 2000 yil tahriridagi ISO 9000 standartlari uchun asos bo'lgan, sakkizta o'zaro bog'liq tamoyillar to'plami ishlab chiqildi.

⁴³ Саноат корхоналарида маҳсулот сифатини бошқариш механизми концепциясини ишлаб чикариш масалалари. Янги Узбекистон иктисадиёти (Илмий-амалий журнал, 5-маҳсус сон, 2023 йил)

⁴⁴ Саноат корхоналарида сифатни назорат қилиш ва бошқариш тизимини такомиллаштириш. Globallashuv sharoitida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishning dolzarb masalalari (III-тум, НамМТИ, 15-16 апрель 2022 йил, 130-132 бетлар)



2-Rasm. Sifat menejmentining asosiy tamoyillari⁴⁵

Iste'molchiga yo'nalganlik.

Tashkilotlar o'zining iste'molchilariga tobe bo'ladi va shuning uchun ularning joriy va kelgusidagi ehtiyojlarini tushunishi uchun, ularning talablarini bajarishi va kutganidan ham yaxshiroq natijaga erishishi lozim.

Rahbarlarning peshqadamligi (sardorligi).

Rahbarlar tashkilotning maqsadi va faoliyati yo'nalishini yagonaligini ta'minlaydi. Rahbarlar tashkilot oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga xodimlarni jalg qilish mumkin bo'ladigan ichki muhitni yaratish va saqlashi lozim.

Xodimlarni jalg qilish.

Barcha pog'ona xodimlari tashkilot asosini tashkil etadi va ularni ishga to'liq jalg etilishi tashkilotga xodimlar qobiliyatlaridan unumli foydalanish imkonini beradi.

Har bir xodim sifatni ta'minlash ishida o'zining muhimligini tushinishi va sifatni yaxshilashda o'z vazifalariga ega. Xodimlarni to'liq jalg qilinishi ularni qibiliyatlarini tashkilot uchun maksimal foyda olishda qo'llash imkoniyatini beradi.

Jarayonli yondashish.

Tashkilotning faoliyati va mavjud resurslar jarayon tarzida boshqarilganda kutilgan natija samarali bo'ladi.

SMT bazaviy modeli sharoitlarida tashkilot bu tamoyil asosida mahsulot va xizmatlarni loyihalash, ishlab chiqarish va yetkazish jarayonlarini aniq belgilaydi.

Boshqarishga tizimli yondashish.

⁴⁵ Rasm tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

Tashkilot o'z maqsadlariga erishishda o'zaro bog'liq jarayonlarni aniqlashi, tushinishi va boshqarishi korxonani samaradorligini hamda yuqori tashkiliy – texnikaviy darajasiga xissa qo'shamdi.

SMT bazaviy modelini ishlab chiqishda bu tamoyil, tashkilot mahsulot yoki xizmatlarni yaratish jarayonlarini mahsulot yoki xizmatlarni buyurtmachi extiyojlariga muvofiqlikka tekshirish jarayonlari bilan birlashtirishga harakat qilayotganligini ta'kidlaydi.

Doimiy yaxshilash.

Tashkilot faoliyatini doimiy yaxshilashga o'zgarmas maqsad deb qaralishi lozim. Tashkilot SMT faoliyati orqali buyurtmachini kelajakdagi ehtiyojlarini samarali qanoatlantirish va joriy qilingan jarayonlarni eng yaxshi natijalarga erishishini o'z maqsadi deb qaraydi.

Faktlarga asoslangan qarorlarni qabul qilish.

Samarali qarorlar ma'lumotlarni va axborotlarni tashkil etishga asoslanadi. SMT faoliyatiga taalluqli qarorlarni qabul qilish uchun bu darajada faktlar va ma'lumotlar qo'llaniladi. Bunda ma'lumotlar manbalari bo'lib auditlar, jarayonlar faoliyati, buyurtmachilar shikoyatining tahlil natijalari, shuningdek boshqa manbalar hisoblanadi. Tahlilda qanoatlanganlik darajasi va SMT samaradorligini oshirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarga alohida e'tibor beriladi.⁴⁶

Yetkazib beruvchilar bilan o'zaro manfaatli munosabatlar.

Tashkilotlar va ularning yetkazib beruvchilari o'zaro bog'liq bo'ladi va o'zaro manfaatli munosabatlar ikkala tomonning moddiy boyliq yaratish imkoniyatlarini oshiradi.

Tashkilot sifat menejmenti tizimini ishlab chiqishi, xujjalarni rasmiylashtirishi, joriy etishi, ishchi holatda saqlab turishi, mazkur standart talablariga muvofiq ravishda uning natijaliligini doimo yaxshilashi kerak.

Sifat menejmenti tizimini joriy etish va ishlatalish uchun tashkilot:

- Sifat menejmenti tizimi uchun kerak bo'lgan jarayonlarni aniqlashi va ularni tashkilotda qo'llashi
- Bu jarayonlarni amalga oshirish ketma-ketligi va o'zaro bog'lanishini aniqlashi;
- Bu jarayonlarni samarali bajarish va ularni boshqarish uchun kerak bo'lgan mezonlari va usullarini aniqlashi;

⁴⁶ Совершенствование организационно-экономического механизма управления бизнесом.

Х Международный молодежный симпозиум по управлению, экономике и финансам (ISMEF–2021) (Казань, 25–26 Ноябрь 2021, 358–366 бетлар)

- Jarayonlarni amalga oshirish va ularni kuzatib borish uchun zarur bo'lgan resurslar va axborotlar bilan ta'minlashi;
- Jarayonlarni kuzatib turishi, baholashi va tahlil qilishi;
- Ushbu jarayonlarni rejalashtirilgan natijalarga erishishi va ularni doimo yaxshilab borishi uchun zarur bo'lgan choralarni kurishi;
- Tashkilot mazkur standart talablariga muvofiq bu jarayonlarni boshqarishi kerak.

Mahsulotni talablarga muvofiqligiga ta'sir etuvchi tashqi jarayonlarni o'zining faoliyatiga qo'shishida, tashkilot bunday jarayonlarni boshqarilishini belgilab qo'yishi kerak. Bu boshqarish sifat menejmenti tizimida aniqlanishi lozim.

Sifat menejmenti tizimi jarayonlarining yuqorida sanab o'tilganlari hisobga olingan holda boshqarish, resurslar bilan ta'minlanishini, mahsulotni ishlab chiqarish va o'lhash jarayonlarini o'z ichiga olshi kerak

Agar tashkilot sifat menejmenti tizimini (SMT) yaratish bo'yicha qaror qabul qilsa, unda ISO 9001:2000 da keltirilgan talablarga muvofiq uning ishlab chiqarilishi rejalashtirilishi kerak. Yuqorida ko'rsatilganlarga muvofiq tashkilotda bajariladigan jarayonlar belgilanishi kerak.

SMTga kiritiladigan jarayonlarni belgilashda tizimni ishlab chiquvchi – tashkilot kuyidagi savollarga javob berishi kerak:

Tashkilotda amalga oshiriladigan va sifat menejmenti tizimiga kiritilgan har bir jarayon umumlashtirilgan ko'rinishda taqdim qilinishi kerak.

Tashkilotda ro'y beradigan har bir jarayon uchun, jarayonni zarur natijasi (kirishi)ni ta'minlash uchun jarayonni boshqarish mezon va usullari belgilanishi kerak.

Har bir jarayonni amalga oshirish uchun zarur resurslarga (xodimlar, qurilma, materiallar va jarayonni bajarish usullari va x.k) ehtiyojlarni aniqlash kerak.

Tashkilotdagi jarayonlarni har biri nazorat ostida (jarayon monitoringi) amalga oshirilishi kerak, jarayonni chiqish ma'lumotlarini esa o'lhash va ularni bu jarayon uchun rejalashtirilgan talablarga muvofiqligini baholash kerak.


SMT faoliyatini xujjatlashtirilgan asosini yaratish va bayon qilish uchun tashkilot SMT xujjatlari to'plamini yaratishi kerak.⁴⁷

ISO 9001:2000 talablariga muvofiq quyidagi proseduralarni majburiy ishlab chiqilishi va xujjatlashtirilishi talab qilinadi:

- xujjatlarni boshqarish;

⁴⁷ Модель совершенства EFQM // EFQM. - Брюссель. – 2011 // Официальный сайт EFQM. – Режим доступа <http://www.efqm.org/the-efqm-excellence-model>

- sifat bo'yicha yozuvlarni boshqarish;
- ichki auditni boshqarish;
- nomunofiq mahsulotni boshqarish;
- to'g'irlovchi amallar;
- oldini oluvchi amallar.



3-Rasm. Sifat menejmenti tizimi⁴⁸

Tashkilotni SMT xujjalarni boshqarish bo'yicha faoliyati xujjatlashtirilgan prosedurada bayon qilinishi kerak.

Xujjatlarni boshqarish xujjatlarni ishlab chiqish bilan birga, SMT faoliyati davrida xujjatlarni o'ziga boshqarishni ko'zda tutishi kerak.

Xujjatlarni boshqarishda quyidagi asosiy funksiyalar bajarilishi kerak:

- xujjatlarga ehtiyojni belgilash;
- xujjatlarni ishlab chiqilishi yoki xarid qilinishini rejalashtirish;
- ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash, amalga joriy qilish;
- xujjatlarni ko'rib chiqish, qayta tasdiqlash;
- hisobga olish, belgilash (identifikatlashtirish), tarqatish, saqlash;
- bo'linmalarni dolzarb xujjatlar bilan ta'minlash;
- o'zgartirishlar kiritish;
- xujjatlar maqomini ko'rib chiqish;
- xujjatlarni bekor qilish va yig'ib olish, eskirgan xujjatlarni qo'llanishini oldini olish;

SMT quyidagi xujjatlari boshqarishi kerak:

⁴⁸ Rasm tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

- SMT xujjatlari (sifat sohasidagi siyosat, sifat bo'yicha qo'llanma, sifat sohasidagi maqsadlar, xujjatlashtirilgan proseduralar, jarayonlar bayonnomalari, ishchi yo'riqnomalar va boshq);
- tashqi xujjatlar (qonun va me'yoriy xujjatlar va x.k.);
- tyexnikaviy xujjatlar (konstrukturlik xujjatlari, texnologik yo'riqnomalar, reglamentlar va x.k);
- bo'linmalar to'g'risidagi nizomlar va lavozim yo'riqnomalari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2003. - 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda qabul qilgan "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.
3. Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida. 20.01.2022 y. <https://nrm.uz/contentf>
4. Фейгенбаум А. Контроль качества продукции: пер. с англ, -М.: Экономика, 1986.-471 с.
5. Никсон Френк Роль руководства предприятия в обеспечении качества и надежности. М.: Издательство стандартов, 1990.-231 с.
6. Букин В. П., Ординарцева Н. П. Стандартизация и качество продукции: Учебное пособие / Под общ. ред. проф. Г.П. Шлыкова – Пенза: ЦНТИ, 2004
7. Quality Management System And Its Analysis In "Mehmash" Limited Liability Company Of Namangan Region. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 7.502 Impact factor. N.G.Orifjonov
8. Саноат корхоналарида махсулот сифатини бошқариш механизми концепциясини ишлаб чиқариш масалалари. Янги Узбекистон иктисадиёти (Илмий-амалий журнал, 5-махсус сон, 2023 йил). N.G.Orifjonov